

D.Mambetniyazov

O‘zbekstan Davlat San‘at va Madaniyat Instituti Nukus filiali San‘atshunoslik fakulteti «Texnogen va dramaturgiya san‘ati» kafedrası asistent oqıtuvchisi

Tel.: +99890 728 57 37

O‘zbek kino san‘ati bir asrdan ko‘proq tarixga ega bo‘lib, uning xazinasida butun dunyoga dovrug‘i taralgan ijod namunalari bisyor. Kino O‘zbekistonga ilk bor kirib kelgan yillarda yetishib chiqqan iste‘dodli rejissyorlarimiz suratga olgan har bir kinolentalar sobiq Ittifoq mamlakatlari orasida ham alohida e‘tirof qozonib kelgan.

Buning asosiy sabablaridan biri ularda O‘rta Osiyo xalqlari urf-odatları, tarixiy voqea-hodisalar, jumladan, xonliklar va amirliklar hayoti bilan bog‘liq syujetlar boshqa xalqlarni hamisha qiziqtirib kelgan. Bundan tashqari xalq og‘zaki ijodi, dostonlar ham faqatgina og‘izdan og‘izga ko‘chmadi yoki qo‘lyozmalarda qolib ketmadi. Endi ularni kinotasmalarga ham muhrlash, tarixni jonlantirish imkoniyati paydo bo‘lgandi.

Bu o‘sha davrlarda milliy kinoning gullab yashnashi uchun xizmat qildi. Xudoybergan Devonov, Komil Yormatov, Nabi G‘aniev, Shuhrat Abbosov, Yo‘ldosh A‘zamov, Latif Fayziyev, Melis Abzalov kabi mahoratli rejissyorlar ham zo‘r g‘ayrat bilan mehnat qilib soha taraqqiyotiga hissa qo‘shishdi, san‘atning yangi yo‘nalishida o‘ziga xos o‘zbekona uslubni yarata olishdi. Ular asos solib ketgan o‘zbek kinosi maktabi ancha yillar davomida yoshlarga yo‘lchi yulduz bo‘lib xizmat qildi. Ya‘ni bizda bu borada maqtansa arzigulik tajriba, ulkan tarix shakllandi.

Biroq so‘nggi yillarda milliy kinofilmlarimiz saviyasi, sifatida pasayishlar kuzatildi. Yengil-yelpi, mavzu va maqsadi noaniq bo‘lgan, daromad olish maqsadida yaratilgan filmlar ko‘payib ketdi. Buning sabablaridan biri sohaga aloqasi bo‘lmagan, zarur maktabni o‘tamagan “ijodkorlar” paydo bo‘la boshladi, kino olish biznes bilan aralashib ketdi. Natijada bunday filmlar o‘zbek kinosi obro‘sigaga putur yetkazib, yakunda auditoriyani undan uzoqlashtirdi. Soni ko‘p bo‘lsa-da saviyasi pasayib borayotgan filmlarning ko‘payishi davrini ba‘zilar hatto o‘zbek kinosining “bollivudlashish”i deb ham atay boshlashdi.

Shunga qaramay, o‘z yo‘lini mahkam tutgan, ijod qilishga jiddiy bel bog‘lagan yosh rejissyorlarimiz ham borligi kishiga taskin beradi. Ularni nafaqat mamlakat ichkarisida, balki xorijda ham e‘tirof etishayotgani buni yaqqol isbotlab turibdi. Chindan ham oxirgi ikki-uch yildan beri o‘zbekistonlik iste‘dodlar jahon sahnalaridan tushmay kelishyapti, ketma-ket sovrinlarni qo‘lga kiritib, boshqalarga namuna bo‘lishyapti.

Shokir Holiqov, Abduazim Ilhomjonov, Abror Samug‘jonov, Ayapbergen Utepbergenov va yana ko‘plab o‘zbekistonlik ijodkorlar jahon kinosahnalarida o‘z ijod namunalari bilan ishtirok etib, xalqaro mutaxassislar e‘tiboriga tushishyapti.

Masalan, 2019-yilda Kann festivali doirasida yosh rejissyor Shokir Xoliqov o'zining "Choy" nomli qisqa metrajli filmi bilan qatnashib, yakunda Gran-pri sohibiga aylangandi. Uning 16 daqiqadan iborat insoniylik, oqko'ngillik va qariyalarga nisbatan rahm-shafqat haqida so'zlaydigan qisq metrajli filmi hakamlar va tomoshabinlar e'tiborini torta olgan. Shokir Xoliqov o'ziga berilgan 1 mlrd. so'mlik grantga ham chol va kampir, ularning dardlari haqida film suratga olish niyati borligini aytgandi. Bu uning ijtimoiy muammolarga befarq emasligi, tomoshabinlarga ma'naviy ozuqa bera oladigan filmlar yaratishga bel bog'laganini ko'rsatadi.

Bundan avvalroq, 2018-yilda esa Gonkongda o'tkazilgan GUFA (Global University Film Awards) talabalar kinofestivalida 99 ta davlatdan qatnashgan 1841 ta film orasida o'zbekistonlik rejissor Abror Samug'jonovning diplom ishi uchun tayyorlagan, atigi 7 daqiqalik "Qurt" qisqa metrajli filmi "Eng yaxshi tajribaviy film" nominatsiyasida g'olib deb topilgandi.

Shuningdek, joriy yilda o'zbekistonlik 4 nafar yosh rejissyorlar DigiCon6 Asia-2020 xalqaro qisqa metrajli filmlar festivalining mintaqaviy saralash bosqichi g'oliblariga aylanishdi. "O'zbekkino" Milliy agentligida saralab olingan filmlar – Abror Samug'jonovning "Qurt" filmi uchun, Saida'loxon Ma'sudxonovning "Larisa" filmi uchun, Asadulla Abdullaevning "Konsert" filmi uchun, Maftuna Ergashevaning "Er qadri" filmi uchun maxsus diplomlar Yaponiyadan yuborildi. Yosh rejissyorlarimiz uchun bu juda katta motivatsiya bo'lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi kabi misollarni yana ko'plab keltirish mumkin. Bugun nafaqat kinoda, balki sa'atning boshqa turlarida ham O'zbekiston yoshlari zamondoshlaridan qolishmay ijod qilib kelishyapti. Bu ularga yaratilayotgan shart-sharoitlar, berilayotgan imkoniyatlar natijasi, albatta. Ta'lim jarayonida ham ularga mahoratli ustozlar, mutaxassislarning berayotgan ko'rsatmalari, ularning uzoq tarixga ega ijod maktabi an'analarini yoshlarga yetkazib bera olishayotgani besamar ketayotgani yo'q.

Endigi vazifa yosh ijodkorlarimizning qo'lga kiritgan yutuqlaridan ilhom olgan holda, yangi marralar sari to'g'ri va dadil qadam tashlay olishdir. Ana shundagina o'zbek san'atining uzoq yillar davomida jahon sahnalari to'ridan tushmay kelishini ta'minlagan bo'lamiz.